

QARINDOSHLIK ATAMALARINING O'ZBEK LINGVOMADANIYATIDAGI O'RNI

Maxsudova Dilorom

O'zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil tadqiqotchisi

diloromidrisovna@gmail.com

<https://orcid.org/my-orcid?orcid=0009-0002-2638-3268>

E-mail: maxammatov-o@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22642482>

Qabul qilindi: 1-sentabr 2026-yil • Ma'qullandi: 6-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 7-sentabr 2026-yil

Annotatsiya.

Mazkur maqolada o'zbek tilidagi qarindoshlik atamalarining lingvomadaniy xususiyatlari antroposentrik tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Qarindoshlik atamaları nafaqat qarindoshlik munosabatlarini ifodalovchi leksik birliklar, balki xalqning tarixiy tajribasi, milliy qadriyatlar, oilaviy munosabatlari hamda dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy vosita sifatida baholanadi. Tadqiqotda jahon tilshunosligida qarindoshlik terminlarini o'rganishga oid nazariy qarashlar hamda o'zbek tilshunosligidagi ilmiy yondashuvlar qiyosiy tahlil qilinadi. Shuningdek, o'zbek shevalarida uchraydigan qarindoshlik terminlari lingvomadaniy mazmun nuqtai nazaridan izohlanadi.

Kalit so'zlar:

qarindoshlik atamaları, lingvomadaniyat, antroposentrizm, til shaxsi, milliy qadriyat, sheva, konsept.

Til xalqning tarixiy xotirasi, madaniy tajribasi va ijtimoiy munosabatlarini o'zida mujassamlashtiruvchi murakkab ijtimoiy hodisadir. Har bir xalqning oilaviy munosabatlari, qarindoshlik tizimi hamda avlodlararo aloqalari eng avvalo uning tilida aks etadi. Shu jihatdan qarindoshlik atamaları tilning eng qadimiy va milliy xususiyatlarni saqlab qolgan leksik qatlamlaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda antroposentrik tilshunoslik til birliklarini inson omili bilan bog'liq holda talqin qilishni asosiy metodologik tamoyil sifatida ilgari surmoqda. V.A. Maslova tilni madaniyatning tarkibiy qismi va uni uzatuvchi vosita sifatida baholab, lingvomadaniy tadqiqotlarda inson omilining ustuvorligini ta'kidlaydi. Yu.N. Karaulov esa til shaxsi nazariyasi orqali til birliklari shaxsning dunyoqarashi va ijtimoiy tajribasi bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. V.I. Karasik til birliklarini kommunikativ qadriyatlar va madaniy stereotiplar bilan izohlaydi. Ushbu nazariy qarashlar qarindoshlik atamalarini faqat nominativ birlik emas, balki milliy madaniyatni ifodalovchi konseptual birlik sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

Qarindoshlik terminlarini ilmiy jihatdan o'rganish XIX asrda L.H. Morgan tomonidan boshlangan bo'lib, u turli xalqlardagi qarindoshlik tizimlarini qiyosiy o'rganish asosida ularning ijtimoiy va madaniy ahamiyatini asoslab bergan (Морган Л.Г. *Системы родства и свойства человеческой семьи*. – Вашингтон, 1871). Morgan qarindoshlik terminlari xalqning tarixiy taraqqiyoti va ijtimoiy tuzilishi bilan uzviy bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

O'zbek tilida esa qarindoshlik atamaları faqat biologik qarindoshlikni emas, balki hurmat, mehr, ijtimoiy yaqinlik, yosh va maqom kabi ko'plab pragmatik hamda madaniy ma'nolarni ham ifodalaydi. Masalan, ota, ona, aka, opa, bobo, buvi, momo, bibi, ena, aya kabi birliklarning qo'llanishi hududiy, madaniy va kommunikativ omillar bilan belgilanadi. Ayniqsa, shevalarda

uchraydigan variantlar xalqning etnomadaniy xususiyatlarini saqlab qolgan muhim til birliklari hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi qarindoshlik atamalarining lingvomadaniy mazmunini antroposentrik paradigma asosida kompleks tahlil qilish zarurati bilan belgilanadi.

Tadqiqotning nazariy asosini lingvomadaniyatshunoslik, antroposentrik tilshunoslik hamda til shaxsi nazariyasiga oid ilmiy qarashlar tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida L.H. Morgan, V.A. Maslova, Yu.N. Karaulov, V.I. Karasik, Sh. Rahmatullayev hamda o'zbek tilshunosligida yaratilgan ilmiy tadqiqotlardan foydalanildi. Empirik material sifatida o'zbek tilidagi qarindoshlik atamalari, ularning sheva variantlari, etimologik va izohli lug'atlar hamda badiiy matnlardan olingan misollar tahlil qilindi. Tadqiqot davomida tavsifiy, qiyosiy-tipologik, komponent tahlil, lingvomadaniy hamda semantik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Maqolada qarindoshlik atamalarining lingvomadaniy xususiyatlari quyidagi mezonlar asosida baholandi:

- milliy-madaniy mazmuni;
- hududiy variantlari;
- kommunikativ vazifasi;
- antroposentrik mohiyati;
- etnomadaniy qadriyatlarni aks ettirish darajasi.

Qarindoshlik terminlarini lingvomadaniy nuqtai nazardan uch guruhga ajratish mumkin:

- Avlod davomiyligini ifodalovchi atamalar (ota, ona, bobo, buvi);
- Oilaviy-ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi atamalar (aka, opa, amaki, xola, tog'a, amma);
- Hududiy va etnomadaniy xususiyatlarni aks ettiruvchi atamalar (ena, aya, momo, bibi va boshqalar).

Mazkur tasnif qarindoshlik terminlarini faqat genealogik emas, balki lingvomadaniy mezon asosida tizimlashtirish imkonini beradi. O'zbek tilidagi qarindoshlik atamalari oddiy nominativ birliklar emas, balki xalqning tarixiy taraqqiyoti, oilaviy qadriyatlari va milliy mentalitetini aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy vositalardir. Qarindoshlik terminlari yordamida nafaqat biologik qarindoshlik, balki shaxslararo ijtimoiy masofa, hurmat darajasi, yosh tafovuti va kommunikativ munosabatlar ham ifodalanadi. L.H. Morgan qarindoshlik terminlarini insoniyat tarixini o'rganishda muhim manbalardan biri sifatida baholab, ularning jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Olimning fikricha, qarindoshlik tizimi xalqning tarixiy rivojlanishi davomida shakllangan ijtimoiy munosabatlarni saqlab qoluvchi tizim hisoblanadi (Морган Л.Г. *Системы родства и свойства человеческой семьи*. – Вашингтон, 1871.). O'zbek tilidagi qarindoshlik terminlari ham aynan shu xususiyatga ega. Masalan, *ota, ona, aka, opa* birliklari nafaqat qarindoshlikni bildiradi, balki muloqotda hurmat va yaqinlikni ham ifodalaydi. Ayrim hollarda ushbu birliklar qarindosh bo'lmagan shaxslarga nisbatan ham qo'llanilib, pragmatik ma'no kasb etadi. Lingvomadaniy nuqtai nazardan qaralganda, o'zbek tilida qarindoshlik terminlarining semantik maydoni juda keng. Ayniqsa, bobo, buvi, momo, bibi, ena, aya kabi birliklarning hududiy variantlari xalqning tarixiy-etnografik xususiyatlari bilan bog'liq holda shakllangan.

Tilshunos olim SH.Rahmatullayevning etimologik tadqiqotlari ayrim qarindoshlik terminlarining qadimgi turkiy davrdan boshlab qo'llanilganligini ko'rsatadi. Bu esa mazkur leksik qatlamning o'zbek tilidagi eng qadimiy qatlamlardan biri ekanligini tasdiqlaydi (Рахматуллаев Ш. *Ўзбек тилининг этимологик луғати*. 1-жилд. – Тошкент: Университет, 2000.).

Lingvomadaniyatshunoslik nuqtai nazaridan qarindoshlik atamalari milliy madaniyatning konseptual birliklari sifatida namoyon bo'ladi. V.A. Maslova tilni madaniyatni saqlovchi va avloddan-avlodga yetkazuvchi asosiy vosita sifatida talqin qiladi (Маслова В.А. *Лингвокультурология*. – Москва: Академия, 2001.).

Mazkur nazariya o'zbek tilidagi qarindoshlik terminlari misolida ham o'z tasdig'ini topadi. Masalan, ota konsepti faqat biologik qarindoshlikni emas, balki mas'uliyat, tayanch, hurmat va oilaning boshlig'i kabi milliy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Xuddi shuningdek, ona konsepti mehr, fidoyilik, tarbiya va muqaddaslik tushunchalari bilan uzviy bog'langan.

Yu.N. Karaulov til shaxsi nazariyasida til birliklari insonning dunyoqarashi va madaniy tajribasini aks ettirishini ta'kidlaydi (Караулов Ю.Н. *Русский язык и языковая личность*. – Москва: Наука, 1987.). Mazkur yondashuv qarindoshlik terminlariga tatbiq etilganda, har bir termin shaxsning ijtimoiy tajribasi hamda milliy qadriyatlarini ifodalovchi vosita sifatida namoyon bo'ladi.

V.I. Karasik esa kommunikativ shaxs nazariyasida til birliklarining qadriyatlar tizimi bilan bog'liqligini asoslaydi (Карасик В.И. *Языковой круг: личность, концепты, дискурс*. – Волгоград: Перемена, 2002.). O'zbek tilidagi qarindoshlik terminlarining muloqot jarayonida faol qo'llanilishi ushbu nazariyaning amaliy tasdig'i hisoblanadi.

Fikrimizcha, o'zbek tilidagi qarindoshlik atamalarini faqat genealogik mezon asosida emas, balki lingvomadaniy funksiyasi asosida ham tasniflash maqsadga muvofiqdir. Shu nuqtai nazardan quyidagi tasnif taklif etiladi:

- avlod davomiyligini ifodalovchi terminlar;
- hurmat va ehtiromni bildiruvchi terminlar;
- oilaviy birdamlikni ifodalovchi terminlar;
- hududiy-madaniy identifikatsiyani aks ettiruvchi terminlar.

Mazkur tasnif qarindoshlik terminlarining funksional imkoniyatlarini yanada chuqurroq yoritishga xizmat qiladi.

O'zbek tilidagi qarindoshlik atamaları xalqning milliy madaniyati, oilaviy qadriyatlari va tarixiy tafakkurini aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy birliklar ekanligini ko'rsatadi. Ular nafaqat qarindoshlik munosabatlarini ifodalaydi, balki kommunikativ vaziyatda hurmat, yaqinlik, ijtimoiy maqom va milliy mentalitetni ham namoyon etadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Xudoyberdiyev J. O'zbek adabiy tilida singarmonizmning chiqarilishi: Monografiya. – Toshkent, 2024. – 324 b.
2. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. 1-жилд. – Тошкент: Университет, 2000. – 680 б.
3. Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001. – 208 с.
4. Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – М.: Наука, 1987. – 263 с.
5. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – 477 с.
6. Морган Л.Г. Системы родства и свойства человеческой семьи. – Вашингтон: Smithsonian Institution, 1871. – 656 с.

Abstract.

This article analyzes the linguocultural characteristics of kinship terms in the Uzbek language from the perspective of anthropocentric linguistics. Kinship terms are evaluated not only as lexical units expressing kinship relations, but also as an important linguocultural tool reflecting the historical experience, national values, family relations and worldview of the people. The study provides a comparative analysis of theoretical views on the study of kinship terms in world linguistics and scientific approaches in Uzbek linguistics. Also, kinship terms found in Uzbek dialects are explained from the perspective of linguocultural content.

Keywords:

kinship terms, linguoculture, anthropocentrism, language identity, national value, dialect, concept.

Аннотация.

В данной статье анализируются лингвокультурные характеристики терминов родства в узбекском языке с точки зрения антропоцентрической лингвистики. Термины родства рассматриваются не только как лексические единицы, выражающие родственные отношения, но и как важный лингвокультурный инструмент, отражающий исторический опыт, национальные ценности, семейные отношения и мировоззрение народа. В исследовании представлен сравнительный анализ теоретических взглядов на изучение терминов родства в мировой лингвистике и научных подходов в узбекской лингвистике.

Также термины родства, встречающиеся в узбекских диалектах, объясняются с точки зрения лингвокультурного содержания.

Ключевые слова:

термины родства, лингвокультура, антропоцентризм, языковая идентичность, национальная ценность, диалект, концепция.